

**TAKRORIYLIK VA DAVOMIYLIKNING LEKSIK-GRAMMATIK
IFODALANISHI**

N.P.Imamov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti v.b dotsenti

Jamolov Ozodbek

SamISI MS-125 guruh talabasi

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.12.2025

Revised: 20.12.2025

Accepted: 21.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*takroriylik (iterativlik),
davomiylik (durativlik),
aspektual semantika, temporal
ravishlar, harakat natijasi,
analitik shakl, habituallik,
qiyosiy tahlil*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada takroriylik va davomiylik aspektual semantikasining ingliz va o'zbek tillaridagi leksik-grammatik ifodalanishini qiyoslaydi. Takroriylik ingliz tilida temporal ravishlar bilan bir qatorda ko'plik shaklidagi to'ldiruvchilar orqali ham hosil bo'ladi. O'zbek tilida bu ma'nolar analitik fe'l shakllari (-moqda, -yot, ko'makchi fe'llar) va natijaning saqlanish muddatini bildiruvchi uzoq vaqt davomida, ancha muddat kabi temporal birliklar yordamida beriladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, kontekstual omillar (fe'lning leksik xususiyati, argumentlarning miqdoriy semantikasi) bu aspektual ma'nolarni aktualizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Ingliz tilida takroriylik temporal ravishlardan tashqari to'ldiruvchi vazifasidagi otning ko'plik shakli qo'llanilishi bilan ham hosil bo'ladi.

O'zbek tilida kesim vazifasidagi analitik shakl predikat ma'nosini cheklangan-uzluksiz turini ko'rsatadi. Masalan: Bir haftadan beri meni melisa so'roq qilyapti. Lutfinisoni sen o'ldirgansan, deb ayb qo'yyapti [Said Ahmad "Ufq", b. 218].

O'zbek tilida ular so'z yasash modeliga ega bo'lgan prefikslar di, yot, moqda, yapdi, ar edi yordamida berilgan harakatni nutq paytida (o'tgan, hozirgi) ma'lum vaqt davomida protsesda ekanligini anglatadi. O'zbek tilida harakat natijasining saqlanish muddati qo'shimchalari turli usullar (uzoq vaqt davomida, ancha muddat, mobaynida, ma'lum davr vahokozo) yordamida yasaladi. Qayd etilgan ravishlarning umumiy semantik xususiyati vaqt ko'rsatgichi bo'lib, ular predikat anglatgan harakatning natijasining holati, saqlanadigan davr, harakat kechimi, jarayondalik, davomiylik kabilarni bildiradi. Ingliz va

o'zbek tillarida ish harakat kechimining saqlanish muddati ravishlari o'xshash xarakterga ega bo'lsada, ularning birikishi, semantikasida farqlar kuzatiladi.

Ingliz tilida zamon bilan bog'liq voqea-hodisalarni takrorlanishi bevosita temporal adverbiallar qo'shimchasiga bog'liq. O'zbek tilida takrorlanishning davomiyligini yoki takrorlanishning ma'lum vaqt oralig'ida sodir bo'lishini bildiruvchi vositalari va ko'rsatkichlari o'zbek tilida ma'lum vaqt oralig'idagi takroriylik chegaralangan xususiyatli fe'l hamda - tur ko'makchi fe'li birikmasi orqali ifodalanadi. Ingliz tilida temporal ravishlar o'tgan zamon shaklining temporalligi va davomli zamon shaklining davomiyligi ma'nosiga aniqlik kiritadi. Temporallik adverbial ma'nolari ta'sirida harakat takrorlanishini, davomiyligini anglatadi. Masalan: But he wasn't much for conversation and nobody has talked to me like this in a long, long, long time, and I'm out of listening practice. I love it when you sound off. But it isn't very clear to me" [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 242]. Ingliz tilida durativlik ma'nosini bildiruvchi temporal vositalarga five hours, whole day va shu kabilari sanaladi. Ular o'tgan zamondagi voqea-hodisa kechimini cheklaydi. Belgilangan vaqt oralig'idagi durativ ma'nodan tashqari takroriy ish-harakat fe'lining leksik ma'nosiga bog'liq bo'ladi. Masalan: Sitting in the Professor's clean parlor—I have seldom sat in a room so utterly clean, the parquet floors of light wood limpid with wax and the Oriental scatter rugs lint-free, and the park below with the equestrian statue of General Sherman prancing on clean air—I was entirely happy. I respected Dr. Scheldt [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 132].

Voqea-hodisalarni ma'lum vaqt oralig'idagi takrorlanishni anglatuvchi predikat va temporal ravishlar bilan moslashadi. Masalan: tez-tez borib turmoq. Ushbu birikmadagi iterativlikni vaqt bilan chegaralanishi tez-tez temporal ravishi semantikaga bog'liq. Iterativlikni aspektual semantik ko'rsatkichlari bilan semantik uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Boshqa hollarda ular hozirgi zamon, o'tgan zamon shakllarida frekvantativ ma'nolarni hosil qiladi. Ular zamon ichidagi takrorlash ma'nosini yaratadi. Masalan: Bu yerda har kuni ertalab chodirdagi fonarlarni olib chiqib tol shoxiga ilib qo'yish odat tusiga kirib qolgan edi [Said Ahmad "Ufq", b. 360]; The more it, the less we. So Humboldt behaved like an eccentric and a comic subject. But occasionally there was a break in his eccentricity when he stopped and thought. He tried to think himself clear away from this American world (I did that, too). I could see that Humboldt was pondering what to do between then and now, between birth and death, to satisfy certain great questions [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 4].

Ingliz tilida harakatni namoyon bo'lishini, cheklangan davomiyligini va takrorlashlarning cheksiz davomiyligini anglatuvchi noaniq iterativ belgilariga vaqtinchalik harakat ko'rsatkichlariga for some time, for two hours kabilarni kiritish mumkin. Harakatning chastotasini, cheklangan va cheklanmagan takrorlanishini bildiruvchi temporal birliklar har doim harakatning predikativligi bilan bog'liq paradigmatic ma'nosiga ega sanaladi.

Takrorlangan harakatning tugallanishi ba'zi hollarda harakatning muddati aniq ko'rsatiladi. Masalan: "Maybe you can wind the whole thing up now. Today." "How? I've surrendered five times. Each time I surrender Denise and her guy up their demands" [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 72].

Ushbu misollardagi each time cheklangan vaqt ko'rsatgichi harakatni bir necha marta takrorlanishini bildiradi.

O'zbek tilidagi har safar, ba'zan, gohida temporal birliklar; hozirgi zamon shaklida voqea-hodisa noaniq takrorlanish bir xil tarzidagi voqelikni, irirativlikni anglatadi. Har doim+cheklanmagan predikat voqelikni uzluksizligini bildiradi, bu gap ergash gap bilan mustahkamlangan gapning nutq vaziyati bilan bog'lanishni ifodalaydi. Masalan: Men har kuni o'shoqqa boraman. Kecha oldimdan ikkita kiyik chopib o'tib ketdi [Said Ahmad "Ufq", b. 351].

O'zbek tilida "marta" ravishi cheklangan takroriy voqea-hodisalarni ifodalaydi. Masalan: Oxunboboyevning bu so'zlaridan keyin bir-ikki marta kiprik qoqdi-yu, ko'ziga yosh qalqib chiqdi, hiqillab gapirolmadi, lablari titrab ketdi [Said Ahmad "Ufq", b. 192].

Voqea-hodisalarni takrorlanishini anglatadigan temporallar har doim, hech qachon, kamdan kam, tez tez, vaqti-vaqti bilan kabilar ham kiradi. Ushbu temporal ravishlar habitual ma'noga ega itirativ vaziyatlarni anglatishda faollashadi. Masalan: U har kuni to'qay kezib qamishlar orasidan ishlayotgan hamqishloqlarini ko'rib o'tiradi [Said Ahmad "Ufq", b. 368].

Harakatni takrorlanish davomiyligini bildiruvchi ma'lum karralik belgilari zamon shakllarining cheklangan davomiyligi ma'nosiga mos keladi. Ushbu ravishlarga birdan, darhol, kabi ravishlar ish-harakatning bir lahzaligini, to'satdanligini ifodalab, bir martalik ish-harakatni bildiradi. Masalan: "As the world's masses arrive at the point of consciousness, they take these exhausted ideas for new ones. How should they know? And people's parlors are papered with these projections." "This is too serious for tongue twisters" [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p.126].

Zamon shakllarga mos keladigan harakatning bir maromda namoyon bo'lishini voqelikni, davomiyligini, takrorlanish davomiyligini anglatuvchi tez-tez, har doim kabi ravishlar iterativlik va flektivlik ma'nosini beradi. Har doim, hech qachon kabi ravishlar imperfektiv, davomiy bo'lgan harakat va jarayonni ko'rsatadi. Masalan: This large, altered but still handsome woman with the occasionally breaking piercing voice, her cheeks looped inward with attractive melancholy, had been studying me. Her glance, though still a bit averted and oblique from the long habit of passivity, was warm and kindly. I am quickly and deeply touched when people take the trouble to note my situation. [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 190].

Bundan tashqari tez-tez, vaqti-vaqti bilan kabi ravishlar turli diskret vaziyatlardagi oddiy harakatlarni bildiradi. O'zbek tilida jarayonning tezligi va oniyeligini bildiruvchi bir zumda,

har soniya, har on kabi ravishlar cheklangan harakat lar bilan xarakterlanadi. Bu ravishlar cheklangan perfektiv harakatlarni ma'lum vaqt oralig'ida takrorlanishni bildiradi.

Masalan: U har kuni el uyg'onmasdan chodirdan chiqardi-da, xuddi quyoshni qarshilayotgandek cho'l tarafga, qizarib-bo'zarib yorishayotgan ufq tarafga qarab ketardi [Said Ahmad "Ufq", b. 348].

Ingliz tilida cheklangan muddat ma'nosiga ega bo'lgan temporal ravishlar fe'ning chegaralangan xususiyati bilan moslashadi. Shuningdek, argumentni ko'plik belgilari bilan ham faollashadi. Bundan tashqari temporal ravishlar ta'sirida predikat aspektual semantik o'zgarishlarga uchraydi. Har ikki tildagi temporal birliklarining harakat semantikasini aniqlashda temporal ravishlar hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Semantik tahlillarda adverbiallarning taqdim etilishining tegishli paradigmatic jihatlarini ularning sinonimiyasi va antonimiyasiga ham ta'sir etadi. Ko'rib chiqilayotgan adverbiallar sinonim va antonim bo'lgan ot turkumlari va frazeologik birliklar taklif etiladi. Bunda adverbiallarning semantik stilistik va kommunikativ xususiyatlariga qaratish maqsadga muvofiqdir.

Takroriylikni ifodalovchi adverbiallar perfektivlikni ifoda qiluvchi boshqa omil bilan birga kelgan bo'lsa, masalan, "twice a year" "yilda ikki marta" kabi, ular imperfektiv ma'noda qo'llaniladi. Chunki, bu adverbiallar voqea-hodisani har birini miqdor ko'rsatgichlarini aniqlovchi lisoniy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday hollarda bu murakkab adverbiallar kompozitsion bo'lish bilan birga, ma'lum bir vazifani bajaradigan vositalar sifatida harakat qiladi, ya'ni alohida voqeliklarni odatiy hodisa sifatida namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bondarko, A. V. Teoriya morfologicheskoy kategorii vida i yeye primeneniye v russkom yazyke. Moskva, 1971. (Aspekt nazariyasiga oid fundamental ish)
2. Comrie, B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. Cambridge University Press, 1976. (Ingliz tilidagi aspekt tahlili uchun)
3. Plungyan, V. A. Obshchaya morfologiya: Vvedeniye v problematiku. Moskva: Editorial URSS, 2003. (Fe'l kategoriyalari va aspekt masalalari)